

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevd Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	



UDK: 72.038.5:7.036(575.1)

ZAMONAVIY ARXITEKTURA INTERYER DIZAYNIDA MILLIY GRIXVA ISLOMIY NAQSHLAR UYG'UNLIGI

Qo'chqarov Baxodir O'Imasovich

Andijon davlat texnika instituti
Arxitektura va gidrotexnika kafedrası v.v.b dotsenti, p.f.n

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grix va islomiy naqshlarning uyg'unligi, ularning estetik, funksional hamda madaniy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu naqshlar orqali interyer muhitiga o'ziga xos milliy ruh va go'zallik bag'ishlanishi, ularning psixologik ta'siri, zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi va me'moriy loyihalarga estetik uyg'unlik olib kirilishi tadqiq etiladi. Mazkur tadqiqotda milliy naqshlarning dizayndagi innovatsion yondashuvlari, funksional yechimlarga qo'shgan hissi va davlat siyosatidagi o'rni ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: interyer dizayn, grix naqshlari, islomiy naqshlar, zamonaviy arxitektura, milliy identitet, estetik uyg'unlik, naqshlar texnologiyasi, dizayn innovatsiyasi.

Abstract: This article analyzes the integration of national girih and Islamic patterns in modern architectural interior design, highlighting their aesthetic, functional, and cultural significance. It explores how these patterns contribute to a unique national atmosphere in interior spaces, their psychological impact, integration with modern technologies, and their aesthetic harmony in architectural projects. The study also considers innovative approaches to design using national patterns, their role in functional solutions, and their place in state policy.

Keywords: interior design, girih patterns, Islamic ornaments, modern architecture, national identity, aesthetic harmony, ornament technologies, design innovation.

Аннотация: В данной статье рассматривается гармония национальных гирih и исламических орнаментов в дизайне интерьера современной архитектуры, их эстетическое, функциональное и культурное значение. Анализируется влияние этих узоров на создание уникальной национальной атмосферы в интерьере, их психологическое воздействие, интеграция с современными технологиями и эстетическое единство в архитектурных проектах. Также изучаются инновационные подходы в дизайне с использованием национальных узоров, их вклад в функциональные решения и роль в государственной политике.

Ключевые слова: дизайн интерьера, гирih узоры, исламские орнаменты, современная архитектура, национальная идентичность, эстетическая гармония, технологии орнамента, инновации в дизайне.

KIRISH

So'nggi yillarda zamonaviy arxitektura va interyer dizaynida milliy o'ziga xoslikka asoslangan g'oyalar keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, grix va islomiy naqshlar dizayn elementlari sifatida katta e'tibor qozonmoqda. Bu naqshlar o'zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosini ifodalab, zamonaviy interyerda o'ziga xos estetika yaratadi [1]. Naqshlarning estetik va semantik funksiyasi interyer fazosida vizual uyg'unlik yaratish, ruhiy totuvlikni ta'minlash, madaniy xotirani jonlantirish hamda milliy identitetni mustahkamlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Interyer dizaynida milliy naqshlardan foydalanish xalqona uslublar bilan zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa dizayn sohasi rivojlanishining yangi

bosqichiga olib kelmoqda. Grix naqshlarining murakkab geometrik tuzilmasi va islomiy naqshlarning o'simliksimon formalaridagi nafislik interyerda zamonaviy estetika va an'anaviy ruhni birlashtirish imkonini beradi. Bu naqshlar nafaqat dekorativ elementlar, balki milliylik timsoli, madaniy kod va arxitektura identitetining vositachisidir.

Ushbu maqola mazkur naqshlarning interyer dizaynidagi ahamiyati, ularning texnik va estetik qo'llanilishi, funksional yondoshuvlari, zamonaviy texnologiyalardagi integratsiyasi hamda uyg'unlashuv mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

D.Sultanova[2] O'zbekiston me'moriy bezaklarida qo'llaniladigan epigrafik ornamentlarning san'atkorona ahamiyatini tahlil qiladi. Muallif arab yozuvi va islomiy naqshlarning tarixiy rivojlanishi, ularning me'moriy obidalarning fasad va interyer dizayniga ta'siri hamda o'zbek milliy didi bilan uyg'unlashishi masalalarini yoritadi. Shuningdek, maqolada bunday epigrafik elementlarning zamonaviy interyer loyihalarida qanday kontekstual moslashuvlarga ega bo'lishi haqida amaliy tavsiyalar berilgan.

Malika va Muhayyo Makhmudova[3] maqolasida O'zbekiston an'anaviy hunarmandchilik elementlari—kashtachilik, to'qimachilik, yog'och o'ymakorligi va mozaikachilik—zamonaviy interyer muhitiga tatbiqining xususiyatlarini o'rganadilar. Mualliflar etno-uslubdagi bezaklardan interaktiv materiallar va rang-barang palitrani uyg'unlashtirish orqali milliy grivxa naqshlarining estetik va madaniy kontekstini qanday saqlash mumkinligini ko'rsatadilar.

L.Fu va hamkasblar[4] islomiy geometrik naqshlarning nazariy asoslari va qo'llanish tamoyillarini tizimli tarzda bayon etadilar. Ular naqshlarning matematik tuzilishi, fraktalga o'xshash iterativ logikasi va material ekspressiya tilida aks etishini tadqiq etib, interyer dizaynida barqarorlik va mantiqiy uyg'unlikni ta'minlash uchun kerakli printsiplarni aniqlaydilar. Shu tariqa, islomiy naqshlarni zamonaviy arxitektura elementlariga joylashtirishdagi asosiy metodologik yo'nalishlarni taklif etadilar.

J.Smith va T.Aliyev[5] maqolasida islomiy geometrik naqshlarning barqaror dizayn kontekstida o'rni ko'rib chiqiladi. Mualliflar naqshlarni biomimetrik printsiplar asosida, masalan, tabiiy ventilyatsiya va yorug'lik taqsimoti uchun optimallashtirish misollarini keltiradilar. Ularning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, bu naqshlar nafaqat madaniy-estetik vazifa bajaradi, balki energiya tejash va ichki muhit sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

R.Fuchs[6] o'z ishida islomiy geometrik naqshlar interyer estetikasi va ramziy funksiyasini chuqur tahlil qiladi. Muallif kontent-tahlil metodologiyasi yordamida naqshning madaniy ma'nosi, erkinlik va funksional qarama-qarshiliklarini o'rganib, uni materiallar, yorug'lik va makon kontekstida qanday ifodalanishini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada naqshlarning zamonaviy kosmik tuzilmalarga integratsiyasi bo'yicha fikr-tavsiyalar mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqot metodologiyasi tizimli, tahliliy va kompleks yondashuvlarga asoslanadi. Tadqiqotda dastlab tarixiy-arxitektura obyektlari, xalq amaliy bezak san'ati namunalarining morfologik tuzilmalari va ularning zamonaviy dizayndagi transformatsiyasi o'rganildi. So'ngra, zamonaviy interyer dizayn tendensiyalarini o'rganish orqali naqshlarning aktual qo'llanilish sohalari aniqlab borildi. Tadqiqotda sifatli kontent-analiz, vizual morfologik tahlil hamda komparativ metodlar asosiy vosita sifatida qo'llanildi.

Shuningdek, amaliy metod sifatida naqshlarning interyer dizayndagi texnologik ishlov berish usullari – gravirovka, mozaika, bo'yoq texnikasi, 3D modellash va lazer kesish texnologiyalari chuqur tahlil qilindi. Ushbu usullar naqshlarning materialga ishlov berish darajasiga, dizayn aniqligiga va estetik ta'siriga ko'ra farqlanadi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar – lazer kesish, CNC gravirovka va 3D bosma usullari naqshlarning murakkab strukturaviy kompozitsiyalarini yaratishga imkon bermoqda. Ushbu texnologiyalar naqshlarni nafaqat devor va shiftlarga, balki mebel elementlariga ham integratsiyalash imkonini beradi.



jadvalda har bir texnologik ishlov berish usulining asosiy afzalliklari va qo'llanilish sohasi keltirilgan (1-jadval):

1-jadval. Naqshlarni interyer dizaynida texnologik ishlov berish usullari va ularning xususiyatlari.

Texnologik usul	Afzalliklari	Qo'llanilish sohasi
Gravirovka	Yuzalarning nozik ishlovi, chuqurlik yaratadi	Yog'och, tosh, metall elementlar
Mozaika	Rang-baranglik va kompozitsion bezak imkoniyati	Devor panellari, pol dizayni
Bo'yoq texnikasi	Qulay va iqtisodiy, vizual effektlar beruvchi	Devor, shift, mebel yuzalar
3D modellashtirish	Oldindan dizayn ko'rinishini ko'rish imkoniyati	Interyer loyihalar, modellashtirish
Lazer kesish	Aniq va murakkab naqshlar ishlovi	Yog'och, plastmassa, akril dekorativ elementlar

Ushbu usullar zamonaviy dizayn vositalari – AutoCAD, SketchUp, 3ds Max dasturlari orqali simulyatsiya qilinib, naqshlarning real fazodagi uyg'unlashuvi baholandi. Ayniqsa, estetik-funksional mezonlar bo'yicha naqshlarning interyerga uyg'unlashuv darajasi grafik tahlillar asosida aniqlanmoqda. Bu metodologik yondashuv naqshlarni dizayn obyektlariga moslash, foydalanuvchi psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish va milliy merosni estetik innovatsiya bilan uyg'unlashtirishda asosiy ilmiy yondashuvdir.

TAHLIL VA NATIJALAR


Naqshlarning interyer dizaynida uyg'unligi nafaqat estetik, balki funksional, semantik va psixologik jihatdan ham muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, grix naqshlarining takrorlanuvchi geometrik tuzilmalari fazoda muvozanat yaratish bilan birga, akustik rezonansni tartibga solishda ham muhim rol o'ynaydi [9]. Islomiy naqshlar esa o'simliksimon tuzilmalari orqali yorug'likning fazoda tarqalishini tabiiy ravishda yumshatadi, bu esa interyerdagi optik muvozanatni ta'minlaydi [12]. Texnologik tahlillar asosida aniqlanishicha, naqshlar estetik element bo'lish bilan birga, interyerdagi energiya samaradorligini oshiruvchi vizual effektlar, psixologik qulaylik va milliy xotira uyg'unligini mustahkamlaydi. Ayniqsa, 3D modellashtirish, lazer kesish va CNC texnologiyalari orqali naqshlarning murakkab strukturaviy konfiguratsiyasi mebel elementlari, devor panellari va shift dekorlarida samarali qo'llanilmoqda [7].

Respondentlar (interyer dizaynerlari, me'morlar va san'atshunoslar) orasida olib borilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, milliy naqshlar bilan ishlangan interyerlar foydalanuvchilar tomonidan ko'proq ijobiy baholangan bo'lib, ularning psixologik qulayligi, madaniy identifikatsiyasi va estetik taassuroti yuqori baholangan [12] (2-jadval). Biroq, ortiqcha naqshlar bilan yuklangan dizaynlar ayrim hollarda vizual zo'riqishni keltirib chiqaradi, shu bois dizaynerlar naqsh tanlashda interyer hajmi, yorug'lik darajasi va foydalanuvchi ehtiyojlariga e'tibor qaratishlari zarur [1]. Shuningdek, naqshlarning interyer dizaynidagi semantik roli ham alohida ahamiyat kasb etadi – ular milliy ruh, tarixiy xotira va madaniy o'zlikni ifodalovchi vizual kod sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, milliy naqshli interyerlar ichki muhitda ruhiy uyg'unlikni saqlash, madaniy barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy identitetni vizual shakllantirish vositasi sifatida ko'rilmogda.

Interyer dizayni orqali milliy qadriyatlarni saqlash va targ'ib qilish esa davlat madaniy siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu natijalar milliy naqshlarning zamonaviy interyerdagi nafaqat dekorativ element, balki integratsiyalashgan dizayn konsepsiyasining asosiy tamoyiliga aylanganini ko'rsatadi. Bu esa arxitektura sohasida madaniy merosni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga zamin yaratadi (2-jadval).

2-jadval. Respondentlarning milliy naqshlar bilan ishlangan interyerlarga bo'lgan munosabati (so'rovnoma natijalari).

Baholash mezonlari	Ijobiy fikr bildirganlar (%)
Psixologik qulaylik	92%
Estetik jozibadorlik	88%
Madaniy identifikatsiya	84%
Uslubiy uyg'unlik	79%
Zamonaviylik va milliylik uyg'unligi	81%



1-rasm. Foydalanuvchilarning milliy naqshli interyerga nisbatan umumiy qoniqish darajasi (%).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy interyer dizaynida milliy grix va islomiy naqshlarning uyg'unligi nafaqat estetik bezak elementi sifatida, balki madaniy identitet, milliy meros va psixologik qulaylikni ifodalovchi asosiy dizayn tamoyiliga aylangan. Bu naqshlar arxitektura va dizayn sohasida boy tarixiy-madaniy an'analarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish imkonini beruvchi kuchli vositadir. Grixnaqshlarining matematik asoslangan tuzilmalari hamda islomiy naqshlarning tabiatdan ilhomlangan organik shakllari interyerda muvozanat, uyg'unlik va ruhiy tasalli yaratadi [9].

Ilmiy tahlillar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

birinchidan, milliy naqshlar interyer dizaynining nafaqat vizual jozibadorlikni oshiruvchi elementi, balki funksional va madaniy tafakkurni mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi. Grixnaqshlarining



matematik-geometrik asoslangan kompozitsiyalari va islomiy naqshlarning organik plastikaligi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda interyerdagi estetik va semantik uyg'unlikni ta'minlaydi.

Ikkinchidan, zamonaviy dizayn texnologiyalari — ayniqsa, 3D modellash, lazer kesish va CNC gravirovka texnikalari orqali bu naqshlarni yuqori aniqlik bilan fazoviy elementlarga integratsiyalash imkoniyati kengaydi [7].

Uchinchidan, empirik tadqiqot natijalari ko'rsatmoqdaki, foydalanuvchilarning milliy naqshli interyerga nisbatan psixologik qoniqish darajasi sezilarli darajada yuqoriligini isbotlaydi [12]. Bu esa, naqshlar orqali estetik hamda ijtimoiy-madaniy integratsiyani mustahkamlashda ularning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Mazkur asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1) interyer dizayn sohasida milliy naqshlardan foydalanishni normativ-metodik jihatdan tartibga soluvchi huquqiy asoslarni mustahkamlash zarur;

2) dizaynerlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida milliy naqshlar va ornamentika bo'yicha ixtisoslashtirilgan fan va modullarni kiritish tavsiya etiladi;

3) zamonaviy dizayn dasturlarida milliy naqshlar bazasini yaratish, ularni kutubxona sifatida integratsiyalash muhim;

4) davlat qurilish siyosatida milliy naqshli arxitektura elementlariga ustuvorlik berish lozim;


5) ilmiy-ijodiy laboratoriyalar doirasida milliy naqshlarga asoslangan eksperimental dizayn yechimlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dizayn maktabining barqaror rivojiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, milliy naqshlar zamonaviy interyer dizaynida estetik-funksional hamda madaniy-ijtimoiy rol o'ynovchi muhim omil sifatida, ilg'or texnologiyalar bilan uyg'unlashib, kelajak arxitekturasining poydevorini belgilaydi.

Shunday qilib, milliy naqshlar nafaqat merosiy qadriyat, balki dizayn sohasida innovatsion resurs sifatida qaralishi lozim. Ularni zamonaviy interyerga integratsiyalash, ilmiy yondashuv asosida madaniy va estetik taraqqiyotga xizmat qiluvchi asosiy tamoyil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, A. "O'zbekiston arxitekturasida milliylik va zamonaviylik uyg'unligi", Toshkent, 2021.
2. Sultanova, D. (2015). Epigraphical Ornaments In Architecture Of Uzbekistan. International Journal of Scientific & Technology Research, 4(7), 83–88.
3. Makhmudova, M., & Makhmudova, M. (2017). Traditional Crafts of Uzbekistan in Modern Interior Design. Proceedings of the International Scientific Conference "Society Integration & Education", 4:87–97.
4. Fu, L., et al. (2022). Application-based Principles of Islamic Geometric Patterns. Heritage Science, 10, 103.
5. Smith, J., & Aliyev, T. (2023). Sustainability Implications of Utilizing Islamic Geometric Patterns in Modern Design. Buildings, 13(10), 2434.
6. Fuchs, R. (2021). Aesthetic Interpretation for Islamic Geometry in Interior Design. Proceedings of the International Heritage Architecture Conference, IHA22, Paper 07.
7. Saidov, R. "Dizayn asoslari va naqsh san'ati", Toshkent, 2020.
8. Jones, O. "The Grammar of Ornament". London, 1856.
9. Hamidov, M. "Islomiy naqshlar tarixi va estetikasi", Samarqand, 2019.
10. Qodirov, U. "Zamonaviy dizayn texnologiyalari", Toshkent, 2022.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-martdagi 132-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5328442>
12. Tursunova, G. "Arxitektura va interyerdagi naqshlar uyg'unligi", 2021.
13. Abdullayev, T. "O'zbek amaliy bezak san'ati asoslari". Toshkent, 2016.
14. Salimova, D. "Milliy naqshlar va ularning madaniy kodlari". Toshkent, 2019.
15. Axmedov, A. "O'zbekiston arxitekturasida ornamentika". Toshkent, 2015.
16. Barry, M. "Islamic Geometry: Art and Design". Thames & Hudson, 2007.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100